

### **Ingliz tilini o'yinlar orqali o'qitish**

*O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti*

*2-ingliz tili fakulteti talabasi*

***Rahimova Gulbadan***

**Anotatsiya:** Bu maqolada ingliz tili fanini turli qiziqarli o'yinlar orqali o'qitishning foydali va qiziqarli taraflari haqida malumotlar bor. Ingliz tili fanini o'qitishda turli xil o'yinlar orqali o'rgatishning o'rni beqiyosdir. Dars davomida har xil o'yinlar o'ynatib turish sinfda fanni o'rganishga bo'lgan ishtiyoqni yanada oshiradi, passive o'quvchilarni ham darslarda yaxshiroq qatnashishga undaydi, sinfda o'quvchilar o'rtasida raqobat, ayni paytda jamoadoshlik muhitini hosil qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning ustozlariga bo'lgan hurmatini oshiradi.

**Kalit so'zlar:** tezkor, o'quvchi, foydali, interfaol, vosita, mashg'ulot, mavzu, qoida.

Quyida Sizga ingliz tili darslari davomida o'qitish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiluvchi o'yinlarni taqdim etiladi.

Last Man Standing (Oxirgi qolgan odam)

Bu o'yin tezkor o'yin hisoblanadi. Lekin O'quvchilarga o'ylash uchun biroz vaqt beradi. Bu o'yin birgalikda o'rganishga undaydi, ya'ni boshqa o'quvchilar so'zlayotganida qolgan o'quvchilar o'zlari so'z o'ylayotgan bo'lishadi. O'yinni o'ynash uchun sizga kopto'kcha kerak bo'ladi. Va hamma o'quvchilar doira shaklida turib olishlari kerak. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo'ladi. Masalan: Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo.

Biror o'quvchiga to'pni uloqtirish orqali o'yin boshlanadi. O'sha o'quvchi mavzuga doir biror inglizcha so'z aytadi va to'pni keying o'quvchiga uloqtiradi. To'pni qabul qilgan har bir o'quvchi shu mavzuga doir biror so'z aytishi kerak bo'ladi. Agar ular aytilgan so'zlarni qayta aytsa yoki bir necha soniya ichida so'z

topa olmasa, ular o'yindan chiqadi va o'yinni o'tirgan holda kuzatadi. Havotir olmang, ular baribir o'rganayotgan bo'ladi.

Bu o'yin biroz boshqacharoq qilib o'zgartirsangiz ham bo'ladi. Biror mavzuga so'z aytish o'rniga, har bir o'quvchi keyingi o'quvchiga biror boshqa mavzu aytishi mumkin. Masalan, siz "say something red" (biror qizil narsani ayting) deb o'yinni boshlappingiz mumkin. Kopto'kni ushlab olgan birinchi o'quvchi "strawberry" deb keyin o'zi biror mavzu tanlab ko'ptokni boshqasiga uloqtirishi mumkin. Bu o'yinni biroz murakkablashtiradi, sababi o'quvchi biror so'z haqida o'ylashidan oldin, qaysi mavzuga doir so'z o'ylashi kerakligini ham bilishi lozim.

### **O'yin orqali o'rgatishning foydali taraflari**

Ingliz tilini o'rganishda o'yinlarning foydasi nimada?

Yoqimli mashg'ulot foydalisi bilan aralash keladi. Bu sizga maktabdag'i dars emas – zerikarli matnlarni o'qib, sababini tushunmasdan fe'lni tuslash talab etilmaydi. O'yinlarda aniq maqsadlar bor – harbiy bazaga kirib olish, jinoyatchini aniqlab zararsizlantirish, qadimiy qaroqchilar makonining jumbog'ini yechish... Bu kabi qahramonona ishlar uchun kompyuter oldida o'tirib olgancha, o'zingiz yaxshi bilmagan tilda sizdan nima talab etishayotganini o'rganib olishga erinmaysiz. O'yinni tanaffusga qo'yib turib, notanish so'zlarning tarjimasini izlaysiz. Muhimi – topshiriqni muvaffaqiyatli uddalash o'yinchida ijobiy hislarni keltirib chiqaradi hamda o'yinni va, tabiiyki, ingliz tilini o'rganishni ham davom ettirishga undaydi.

Yangi so'zlarni o'rgatadi

Dialoglarda hamisha yangi so'zlar uchraydi va inventarda lipillab ko'rindi. Tez-tez takrorlangani uchun va aynan o'sha onda, o'sha vaziyatda kerak bo'lgani sababli ham so'zlar osongina esda qoladi.

O'yin – interfaol vosita

Film yoki serialdan farqli o'laroq, o'yinlarda istasangiz-istamasangiz boshqa personajlar bilan birgalikda harakat qilasiz: ularning ko'rsatmalariga amal qilasiz, dialoglarda kerakli qatorni tanlaysiz. Biror harakatni amalga oshirib, shu

onning o‘zidayoq unga javob harakati olasiz, shu qatori verbal – nutq vositasida ham. Gavjum ko‘chada to‘pponchadan o‘q uzsangiz, «Call the cops!» kabi qichqiriqlar angraydi. Futbol o‘yinida to‘ppa-to‘g‘ri hujumchining oyoqlari ostiga borib yiqilsangiz – sharhlovchi xitob qiladi: «Oh, what a terrible foul!». Buning ustiga, o‘yinlar odatda filmlardan ko‘ra ancha ko‘p vaqt egallaydi – o‘rtacha 10–15 soat. Shu bois geymer boshqa personajlarning talaffuzi va ovoziga oson ko‘nikib hamda tobora yaxshiroq tushunib boradi.

### **O‘yinlarda xilma-xillik bor**

O‘yinlarning syujetlari turlicha: o‘rta asrlardagi ziddiyatlar, kelajakdagi janglar, detektiv tekshiruvlar, kriminal tortishuvlar... Ularning tili ham turfa: «Jodugar» («Vedmak»)dagi savodsiz dehqonlar tilidan tortib «Watch Dogs 2»dagi kaliforniyalik o‘smirlarning ko‘cha tiligacha. Ularda hatto grammatika ham turli-tuman: qayerdadir ingliz tilining qirollar nutqida qo‘llanadigan kitobiy ko‘rinishi, yana bir joyda esa – hatto tilning asosiy qoidalarini ham chetlab o‘tuvchi norasmiy ko‘cha tili.

### **Foydalanilgan saytlar**

1. [hhttp://hasanboy.uz](http://hasanboy.uz)
2. [hhttp://www.forumdaily.uz](http://www.forumdaily.uz)
3. [hhttp://www.britishcouncil.uz](http://www.britishcouncil.uz)
4. [hhttp://www.terabayt.uz](http://www.terabayt.uz)